



XALQARO HUQUQ MANBALARI VA UNING SHAKILLANISHI.

Avazova Sevinch

Toshkent davlat yuridik universiteti

2-kurs "A" potok talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18932988>

Xalqaro huquq manbalari — bu xalqaro huquq normalarini yaratish, e'tirof etish va tatbiq etish shakllari bo'lib, ular orqali xalqaro huquq tizimi shakllanadi. Ular nafaqat davlatlarning o'zaro kelishuvlari natijasida, balki ularning amaliy faoliyati, odatlari va sud amaliyoti orqali ham rivojlanib boradi. Shu sababli, xalqaro huquq manbalari doimo dinamik, ya'ni o'zgaruvchan va yangilanib boruvchi tizimdir.

Mazkur esseda xalqaro huquq manbalarining nazariy asoslari, ularning turlari va shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Nizomi va Xalqaro Sud Nizomi doirasida huquq manbalarining huquqiy asoslari, shuningdek, xalqaro amaliyotda mashhur bo'lgan Lotus, Preah Vihear va Nikaragua ishlarining mazkur jarayonga ta'siri o'rganiladi.

Har qanday huquq tizimi o'zining asosiy manbaalariga tayanadi. Xalqaro huquq ham davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mustaqil tizim bo'lib, uning asosiy manbalari adolat, tenglik va tinchlik tamoyillariga asoslanadi.

Huquq sohasida shakl alohida ahamiyatga ega. Qadimgi Rimda shunday deyilardi: forma legalis forma essentialis (yuridik shakl muhim). Agarda xalqaro huquqni uning tartibga solayotgan munosabatlar bilan o'zaro a'loqasini ko'radigan bo'lsak, unda u davlatlararo munosabatlarning yuridik shakli sifatida yaqqol namoyon bo'ladi. Xuquq normasi subyektlarning kelishuvlari asosida yaratilgan ular uchun huquq va majburiyatlarni o'rnatuvchi rasmiy qat'iy qoida bo'lib uni amalga oshirish yuridik mexanizim bilan amalga oshiriladi. Normani bir so'z bilan aytganda xalqaro huquq binosini qurish uchun ishlatiladigan asosiy g'isht, poydevor deyish mumkin. Ushbu huquq sohasi davlatlararo munosabatlarda yuzaga keladigan shaxsiy va moliyaviy nizolarni hal etish davlatlar va hukumatlararo tashkilotlar o'rtasidagi a'loqalarni tartibga solish uchun kerakli asoslarni yaratadi. Xalqaro ommaviy huquq uzoq rivojlanish yo'li davomida ancha o'zgarishlarga uchradi. Hozirgi kunda amalda bo'lgan xalqaro huquq bilan ikki yuz oldin amal qilgan xalqaro huquqning prinsiplari normalari va manbalarini solishtirsak, ular orasida katta farq borligini ko'rishimiz mumkin. Ilgari amal qilgan normalar va prinsiplar tizimi klassik xalqaro huquq nomini olgan, zamonaviy normalar va prinsiplar tizimi esa hozirgi zamon xalqaro huquqi deb nomlanadi. Ba'zi olimlar hozirgi zamon xalqaro huquqining paydo bo'lishini 1648- yil Vestfal sulh bitimini tuzilishi bilan bog'lasalar boshqalar uning kelib





chiqishini XIX asrning oxiri va XX asr boshlariga taqaydilar. ¹Shu davrlar mobaynida xalqaro huquq paydo bo'lib bosqich-ma bosqich rivojlanib kelmoqda. Xalqaro huquq normalarini xalqaro huquq subyektlari rioya etadigan odatlardan farqlash lozim. Normalar yuridik jihatdan majburiy bo'lgan qoidalar bo'lganligi sababli uni buzish yuridik javobgarlik keltirib chiqarishi mumkin, ammo odatda bunday javobgarlik kelib chiqmaydi. Normalarni amal qilishi bevosita emas, balki ular ma'lum bir manbalarda mustahkamlangandagina amalga oshiriladi. Xalqaro huquq normalari har doim ma'lum bir huquqiy manbalarda aks ettirilgan bo'ladi. Xalqaro huquq manbalari - bu xalqaro huquq normalrining shakillanishi, ifodalanishi va davlatlar tomonidan tan olinishi uchun asos bo'lgan hujjatlar va amaliyotlardir. Xalqaro huquqning umumiy nazariyasiga muvofiq, "Xalqaro huquq manbayi" iborasi – o'zida yuridik majburiy xulq atvor qoidasini namoyon etadigan va bu qoidaga huquqiy norma hususiyatini beradigan (masalan, konstitutsiya, qonun, farmon, vakolatli davlat organining qarori).

Asosiy qism

Xalqaro huquq manbalari- o'zida xalqaro munosabatlar subyektlarining xatti-harakat qoidalarini namoyon etadigan va ushbu qoidalarga xalqaro huquqiy normalar xususiyatini joriy qiladigan shakillardir. Shuningdek manbalar ushbu soha subyektlari tomonidan tan olingan davlatning xohish irodasini muvofiqlashtirish natijalarini mujassamlashtirgan xalqaro-huquqiy normalarni qayd etish shaklidir.

Xalqaro huquq milliy huquq tizimidan ba'zi jihatlar bilan farq qiladi. Ulardan xalqaro normalar subyektlar tomonidan ular o'rtasida o'zaro kelishuvga asosan ularning xohish irodasini ifoda etuvchi bitimlarga binoan o'rnatiladi. Shu munosabat bilan xalqaro huquq manbalari to'g'risidagi subyektiv huquqlarning manbayi yoki xalqaro huquqiy munosabat subektlarining majburiyatlarining manbayi sifatida qarash to'g'riroq bo'ladi. Davlatlarning milliy qonunchiligidan farqli ravishta xalqaro huquqda uning manbalari ro'yxati ko'rsatilgan maxsus hujjat yoki norma mavjud emas. Ammo Birlashgan Millatlar Xalqaro Sudi Statutining 38-moddasida xalqaro huquqning manbalari ko'rsatilgan bo'lib bular xalqaro huquqning rasmiy manbalari hisoblanadi. Ular xalqaro huquqdagi masalarni tartibga solishda muhim o'rin tutadi. Manbalar davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda masalan hamkorlik, tashqi siyosat, masalarida ham tayanch vazifasini bajaradi.

¹ Xalqaro huquq. Darslik.mas'ul moharrir y.f.n.,prof.G.Yuldasheva//Mualliflar jamoasi.-T.:TDYU nashiryoti, 2018.-450 bet





1.Xalqaro shartnomalar (konvensiyalar)- davlatlar o'rtasida yozma ravishda tuzilgan, xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan bitimlardir. Masalan, BMT Nizomi(1945-yil) yoki Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi(1948-yil)

2. Xalqaro odat huquqi- davlatlarning uzoq yillik bir xilda takrorlanuvchi amaliyoti va ularni majburiy deb tan olish.

3.Huquqning umum etirof etilgan tamoillari- adolat, tenglik, vijdon, halollik kabi umumiy g'oyalar xalqaro huquqda ham qo'llaniladi.


Xalqaro huquq normalari avvalo huquq subyektlarining roziligi bilan yaratiladi. Rozilikni izhor qilish shakli huquqni yaratish jarayoni kabi turlicha bo'lishi mumkin. Xalqaro huquq normalari mazmun va shakliga ko'ra turlicha bo'lib quyidagi asoslarga muvofiq tasniflanadi:

- **Normalar yuridik kuchi bo'yicha**
- **Amal qilish doirasi bo'yicha**
- **Tasir qilish tavsifiga ko'ra**
- **Tizimdagi funksiyasiga**
- **Manbasiga**

Yuqorida sanab o'tgan manbalarimizning asosiy manbalaridan biri **xalqaro shartnoma (Konvensiya)** bo'lib, birinchi navbatda, xalqaro shartnoma nima ekanligiga to'xtaladigan bo'lsak, shartnoma inglizcha "treaty" so'zidan olingan – umumiy ma'noda xalqaro barcha kelishuvlarni anglatish, ifodalash uchun qo'llaniladigan atama. Xalqaro huquqning bir, ikki yoki bir qancha subyektlari o'rtasida o'zaro huquq va majburiyatlarni yaratish yo'li bilan aniq ifodalangan, nomlanishidan qat'iy nazar, xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan bitim hisoblanadi. Xalqaro shartnoma xalqaro huquqning asosiy manbayi hisoblanadi. 1969-yilgi "Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida"gi Vena konvensiyasi hamda 1986-yildagi "Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risida"gi Vena konvensiyasida "shartnoma" atamasiga ta'rif berilgan.²

O'zi xalqaro shartnomaga berilgan ilmiy ta'rifni yuqorida berib o'tdik. Ushbu ta'rifni sharhlaydigan bo'lsak, shartnoma tuzish uchun, albatta, ikki va undan ortiq subyekt mavjud bo'lishi yoki bir tomon subyekt sifatida ikkinchi tomon xalqaro subyekt hisoblanmaydigan holatlar ham mavjud bo'lishi mumkin. Xalqaro tashkilotlar tomonidan tuziladigan shartnomalar ko'p tomonlama hisoblanadi, chunki ushbu tashkilotga a'zo davlatlar ishtirokida ushbu shartnoma tasdiqlanadi. Ikki tomonlamali shartnomalaresa ikki davlat yoki biri davlat

² https://prezi.com/p/cbycbnbrtg/_xalqaro-huquqning-normalari-va-manbalarinormaxalqaro-huquq-normalarining-tasnifxalqaro-huquq-manbalarining-asosiy-turlarihuquqning-umumiy-tamoyillarixalqaro





ikkinchisi xalqaro tashkilot hisoblangan davlatlar ishtirokida ham imzolanishi mumkin. Bunga misol sifatida davlatni moliyaviy tomondan kreditlash uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan tuziladigan ikki tomonlamali shartnomalarda bir tomon davlat, ikkinchisi xalqaro tashkilot bo'lishiga misol bo'ladi. Bir narsani aytish kerak, davlatlar o'rtasida tuziladigan har qanday shartnomalar ham xalqaro shartnoma hisoblanmasligi shartnomalar bo'yicha Xalqaro huquq Komissiyasining birinchi ma'ruzachisi J.Braerli tomonidan ta'kidlangan: "Xalqaro shartnoma tuzish layoqatiga ega bo'lgan tuzilmalar tomonidan tuzilgan har qanday shartnoma ham xalqaro shartnoma bo'lavermaydi".³O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida energetika sohasidagi hamkorlik bo'yicha 2011-yil 24-yanvardagi Brusselda imzolangan memorandum xalqaro shartnoma sifatida tomonlarga majburiyat olishga majburlamaydi. Shu o'rinda aytib o'tamiz, xalqaro shartnoma –davlatlar yoki xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlarini o'rnatish, ijro etish, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan tegishli tartibdagi roziligi hisoblanadi. Xalqaro shartnomalarning yana bir o'ziga xos bo'lgan turi tashkilotlarning tasisi hujjatlaridir.Shartnomavit tartibga solish sohasini muntazam kengayib borishi xalqaro munosabatlarni rivojlanishining qonuniyati hisoblanadi. Bunga yaqqol misol qilib 1969-yilda qabul qilingan Vena konvensiyasini olish mumkin.Bu shartnomanning tobora rivojlanib borayotganligi xalqaro huquq manbayi va ijtimoiy tuzumdan qat'iy nazar, davlatlar hamda millatlar o'rtasidagi tinch hamkorlikni rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

BMT Nizomining 2-moddasida barcha a'zolar o'zaro majburiyatlarni "vijdonan bajarishlari" shartligi ta'kidlangan. Bu xalqaro shartnomalarning eng muhim tamoyillaridan biri bo'lgan "pacta sunt servanda" (shartnomalarga sodiqlik) prinsipining huquqiy ifodasidir.

Shartnomalar turlicha shaklda bo'lishi mumkin: ikki tomonlama, ko'p tomonlama, ochiq yoki yopiq, doimiy yoki vaqtinchalik. Ularning asosiy vazifasi — davlatlarning siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy sohalarida o'zaro hamkorligini huquqiy asosda mustahkamlashdir.

alqaro shartnomalar huquqining asosiy 3 ta manbasi mavjud:

✓1969-yildagi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi –faqatgina davlatlararo tuzilgan shartnoma hisoblanadi;

✓1978-yilda Shartnomalarga nisbatan davlatlarning huquqiy vorisligi to'g'risidagi Vena konvensiyasi;

³Yearbook of the ILC. –1950. –Vol. II. –P/ 227.





✓1986-yildagi Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar to'g'risidagi Vena konvensiyasi.

Konvensiyalar — xalqaro shartnomalarning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, odatda keng ko'lamli va universal ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy normalarni belgilaydi. Ular ko'p tomonlama hujjatlar sifatida qabul qilinadi va xalqaro odat huquqini kodifikatsiya qiladi.

Masalan, 1969-yilgi Vena konvensiyasi xalqaro shartnomalarning tuzilishi, amal qilishi va bekor qilinishi tartibini belgilovchi asosiy xalqaro hujjatdir. Uning 26-moddasida shunday deyiladi:

“Har bir amal qilayotgan shartnoma tomonlar uchun majburiydir va ular uni vijdonan bajarishlari lozim.”

Shuningdek xalqaro konvensiyalar qatoriga, **BMT Dengiz huquqi konvensiyasi, Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlarni keltirish mumkin.**

Konvensiyalar ko'pincha BMT Bosh Assambleyasi yoki xalqaro konferensiyalar tomonidan ishlab chiqiladi va ratifikatsiya yo'li bilan kuchga kiradi. Ular xalqaro huquqning kodifikatsiyalangan manbai sifatida davlatlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

Rezolutsiyalar- xalqaro huquq manbalarining bir bo'laklari bo'lib xalqar huqu sohasida muhim o'rin egallaydi. Rezolyutsiyalar asosan tavsiya xarakterida bo'lsa-da, ularning ayrim turlari xalqaro huquqning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, BMT Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyalari tinchlik va xavfsizlikni saqlash bilan bog'liq masalalarda majburiy kuchga ega.

Eng mashhur misollardan biri — BMT Xavfsizlik Kengashining 242-rezolyutsiyasi (1967) bo'lib, u Arab-Isroil urushi natijasida bosib olingan hududlardan chiqish to'g'risida qabul qilingan. Bu hujjat Yaqin Sharq tinchlik jarayonining asosiy siyosiy va huquqiy poydevoriga aylangan.

Umuman olganda xalqaro huquq manbaalari bir kunda vujudga kelib qolmagan. Ular yillar davomida insoniyatning o'zar munosabatlaridagi ehtiyojlar, urushlar tinchlik kelishuvlari va xalqaro tashkilotlari orqali shakllangan. Shakllanib borishi natijasida zamonaviy davrda esa xalqaro konvensiyalar tizimi paydo bo'lib, huquq manbalari aniq shakliga ega bo'ldi.

Masalan tarixdan misol keltiradigan bo'lsak, Preah Vihear ibodatxonasi ishi (Kambodja va Tailand, 1962-yil) — xalqaro huquqda hududiy nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish va sud qarorlarining majburiy kuchini yoritib bergan mashhur kazusdir. Kambodja va Tailand o'rtasida Preah Vihear deb nomlangan qadimiy ibodatxona joylashgan hudud ustida uzoq yillar davomida





nizo bo'lgan. Kambodja bu masalani Xalqaro sudga olib chiqdi.⁴ Sud 1907-yilda tuzilgan xaritani asos qilib olib, ibodatxona Kambodja hududida joylashgan degan qaror chiqardi. Sudning fikricha, Tailand bu xaritani ko'p yillar davomida e'tirozsiz tan olganligi sababli, keyinchalik uni inkor eta olmaydi. Shu sababli ibodatxona ustidan suverenitet Kambodjaga tegishli deb topildi. Ushbu ish xalqaro huquqda davlatlarning hududiy yaxlitligi, xalqaro shartnomalarga sodiqlik, sud qarorlarining majburiyligi va davlat amaliyotining ahamiyati tamoyillarini mustahkamladi hamda xalqaro huquq manbalari shakllanishida sud amaliyotining o'zni naqadar muhimligini yaqqol namoyon etdi.⁵

Xalqaro huquqning navbatdagi asosiy manbalaridan biri bu-odat huquqi bo'lib **Xalqaro sud statusining 38-moddasida "huquq normasi sifatida tan olingan umumiy amaliyotning isboti"**deb tan olingan⁶.


Ushbu manba davlatlarning muayyan xatti harakatlari amaliyoti va ko'p takrorlanib turadigan shu bois yuridik majburiy deb tan olingan normasi hisoblanadi. Kelishilgan xalqaro harakat usullarini tan olishga va bu usullarga xalqaro huquq maqomini berishga muayyan tarzda o'z istagini bildirgan davlatlarning bir turdagi yoki ko'p takrorlangan va doimiy odatga aylangan harakati yuridik mazmunga ega bo'ladi. Uning o'ziga hosligi shundagi u huquqning aniq bir hujjatining normalarida keltirilmaydi, u davlatlarning tashqi siyosiy hujjatlarida, diplomatik yozishmalarida qayd etiladi. Bunga misol qilib davlatlar tomonidan tarixiy ko'rfazlardagi ichki dengiz suvlariga munosabatda bo'lish qoidasi odat normasiga misol bo'lishi mumkin.

xalqaro munosabatlar tizimi tobora murakkablashib borayotgan bir davrda davlatlar o'rtasida hamkorlikni tartibga solish va barqarorlikni taminlashda xalqaro tashkilotlar va konferinsiyalarning o'zni beqiyosdir. Ular tomonidan qabul qilinadigan majburiy aktlar esa xalqaro huquqning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Mazkur aktlar nafaqat davlatlar uchun huquqiy majburiyatlar yaratadi, balki butun dunyoda qonun ustivorligi inson huquqlari xavfsizlik va barqaror taraqqiyot tamoillarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek ular xalqaro huquq tizimining muhim manbalaridan biridir. Xalqaro huquq normalarini yaratish, rivojlantirish va sharhlashda xalqaro tashkilotlar va konferinsiyalarning aktlari katta ahamiyatga ega. BMT Bosh Assambleyasining deklaratsiyalar deb nomlangan ba'zi rezolutsiyalari BMTga a'zo davlatlar tomonidan, ularning o'zaro munosabatlarini o'z ichiga oladi.

⁴ Xalqaro ommaviy huquq bo'yicha sud amaliyoti (keysar to'plami) o'quv qo'llanma. Umirdinov A.I va Xakimov A.m.TDYU 2018-yil

⁵ O'quv uslubiy qo'llanma (Keysar to'plami).y.f.d.prof.A.I.Umirdinov.-Toshkent:. TDYU nashriyoti, 2018-yil.-200 bet.

⁶ 1969-yilgi Vena konvensiyasi, 26-moddasi. <https://lex.uz/ru/docs/2646376?twolang=true>





Xalqaro sud nizomini tegishli moddasida qayd etilishicha "O'ziga biriktirilgan nizoli ishlarni xalqaro huquq normalari asosida hal qilish majburiyatiga ega bo'lgan sud yuqorida qayd etib o'tgaan shartnoma, rezolutsiya konvensiya va odat normalari asosida ish ko'radi.

Xalqaro sudlarning faoliyati ushbu normalarni qo'llash va talqin qilishda asosiy ustuvor o'rinni egallaydi. Sud qarorlari BMT Xalqaro sud nizomining 38-moddasida "**subsidiar normalar**" ya'ni qo'shimcha normalar sifatida qayd etishiga qaramasdan amaliy jihatdan ahamiyati katta va beqiyosdir. Ulardan eng muhimlari:⁷

- ❖ **Xalqaro Sud (International Court of Justice — ICJ);**
- ❖ **Xalqaro Jinoyat sudi (ICC);**
- ❖ **Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi (ECHR);**
- ❖ **BMT arbitraj sudlari va maxsus tribunalalar.**

Sud qarorlari faqat nizoda ishtirok etgan tomonlar uchun majburiydir. Biroq ularning huquqiy talqinlari va tamoillari keying ishlar uchun naamuna sifatida talqin etiladi.

Shuningdek mazkur Sud nizomining ushbu moddasida eng nufuzli mutaxassislarning doktrinalari haqida ham keltirib o'tilgan bo'lib bu degani sudlar qaror qabul qilishda mutaxassis olimlarning asarlaridan manba sifatida foydalanishgan.

Gugo Grotsiy— "Xalqaro huquqning otasi" deb ataladi. Uning "Urush va tinchlik huquqi to'g'risida" ("De jure belli ac pacis") asari xalqaro huquqning tabiiy tamoyillarini asoslab berdi. Shuningdek, **Emer de Vattel**— "Davlatlar huquqi to'g'risida" ("Le Droit des Gens") asarida davlatlarning tengligi, suvereniteti va mustaqilligi tamoyillarini ilgari surdi.⁸

Shuningdek, xalqaro huquqning yordamchi manvalari sirasiga davlatlarning bir tomonlama aktlarini kiritish mumkin. Jumladan majburiyat akti, tan olish akti, va e'tiroz aktlarini keltirish mumkin.

Majburiyat akti o'z vakolatli organi timsolida davlatning qabul qilgan bayonoti bo'lib, unda mazkur bayonotida ifodalangan shartlarda xalqaro munosabatlarda o'z zimmasiga amaldagi xalqaro huquqiy qoidalarda ko'rsatilgan

⁷ <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/huquqshunoslik/xalqaro-huquq-normalari-va-manbalari>
⁸ [Xalqaro huquq normalari va manbalari | Yuklab olish - pdfbox.uz](#)





yki bunday qoidalarga aniqlik kiritilgan boshqa barcha davlatlarga yoki ularning ba'zi biriga yo'llangan ma'lum hatti harakatlarga aml qilish majburiyatini olganligini bildiradi.

Tan olish akti-davlatning yuridik akti bo'llib uning vositasida davlat boshqa davlatlarning xalqaro huquqa muvofiq harakatlari natijasida yaratilgan holatning yuridik ahamiyatini tan olish chunki bunday vaziyat mavjudligi haaqida ushbu davlatga ma'lum bo'lgan yoki ma'lum bo'lishi lozim bo'ladi. Tan olish aktining mazmun mohiyati shundan iboratki u boshqa davlatga murojaat qilgan vakolatli organning yaqqol ifodalangan akti vositasi bo'lib xizmat qilishidadir.

Protest akti so'zning manosidan kelib chiqqan holda davlatning boshqa b ir davlat bilan hatti harakati natijasida vujudga kelgan yuridik ahamiyatga ega vaziyatni huquqiydeb tan olishni rad etish to'g'risidagi bayonoti, ya'ni bu vaziyatni amaldagi xalqaro huquqiy ko'rsatmalarga muvofiq huquqqa zid deb tavsiflashidir.

Sud amaliyotidan misollar:

“Lotus ishi” (Fransiya va Turkiya, 1927-yil)

1926-yilda O'rta dengizda fransuz kemasi “Lotus” va turk kemasi “Boz-Kourt” to'qnashib ketgan natijada sakkiz nafar turk fuqarosi halok bo'lgan. Bu voqeadan so'ng Turkiya hodisa uchun aybdor deb topilgan fransuz ofitserini hibsga olib, sudga tortadi. Fransiya bunga norozilik bildirib, xalqaro huquq nuqtai nazaridan Turkiyaning bunday yurisdiksiya huquqi yo'q deb da'vo qiladi.

▪Sud qarori:

Xalqaro doimiy sud (Permanent Court of International Justice) 1927-yilda quyidagi qarorga keladi:

“Davlatlarga xalqaro huquq faqat aniq taqiqlangan narsalarni amalga oshirmaslikni buyuradi. Agar biror narsa taqiqlanmagan bo'lsa, demak, u ruxsat etilgan hisoblanadi.”

Bu qaror xalqaro huquq tarixida “Lotus tamoyili” sifatida mashhur bo'ldi. U shuni anglatadiki, xalqaro huquqda davlatlarning faoliyati erkin hisoblanadi, to o'sha harakat aniq ravishda man etilmagan bo'lgan.

“Lotus ishi” xalqaro huquqning manbalarini shakllantirish jarayoniga bevosita ta'sir qildi. U xalqaro odat huquqining asosiy mezonlari — davlat amaliyoti (state practice) va huquqiy e'tiqod (opinio juris) tushunchalarini rivojlantirdi.

Shuningdek, bu **ish xalqaro yurisdiksiya** va **suverenitet** masalalarini yoritishda hanuzgacha asosiy pretsedent sifatida qo'llaniladi.

Xulosa





Shunday qilib yuqoridagi mavzuni atroflicha muhokama qilib, biz xalqaro huquq manbalari ushbu huquq sohasining negizi ekanligini va uni xalqaro shartnomalar, konvensiya, rezolutsiya va odat huquqi tashkil qilishini bilib oldik. Shuni aytish mumkinki ularning har biri bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib bir birin to'ldiradi. Ular shunchaki hujjatlar to'plamigina bo'lib qolmay, balki davlatlarning irodasi, xalqaro odat tamoyillari, va insoniyat manfaatlarining mujassam ifodasidir. Ular bir biri bilan uyg'un ishlaydi. Shartnomalar huquqiy asosni beldilasa, Sud qarorlari ularni to'ldiradi, odatlar esa qonunlarda belgilanmagan normalarni yaratdi.

Xalqaro huquqning kuchi — uning manbalarining ishonchliligi, adolatligi va umumiy qadriyatlarga asoslanganligidadir. Shu bois, har bir davlat xalqaro huquq manbalarini hurmat qilishi, ularni rivojlantirishda faol ishtirok etishi va xalqaro tinchlik uchun mas'uliyat bilan yondashishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (Nyu-york 10.12.1948 yil) BMT Bosh Assambleyasining 10.12.1948 yildagi 217 A (III) ko'rsatmasi asosida. <https://www.un.org>;
2. O'quv uslubiy qo'llanma (Keyslar to'plami). y.f.d. prof. A.I. Umirdinov. - Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018-yil.
3. Xalqaro huquq. Darslik mas'ul moharrir y.f.n., prof. G. Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. - T.: TDYU nashriyoti, 2018. - 450 bet
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/huquqshunoslik/xalqaro-huquq-normalari-va-manbalari>
5. Xalqaro ommaviy huquq. Odilqoriyev X.T, Ochilov B.E, 2007.
6. Xalqaro huquq: Ma'ruzalar kursi / Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor A.X Saidov
7. Xolbekov A. "Inson huquqlari: nazariyasi va amaliyot". Toshkent, 2019.
8. Xalqaro huquq bo'yicha keyslar to'plami TDYU, 2024-yil..

